# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

№5



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

2025

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 567 sahifa.*
*E'lon qilishga 2025-yil 1-mayda ruxsat etildi.*



**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir oʻrinbosari:**
**Karimov Norboy Gʻaniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – Oʻzbekiston doʻstlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat Gʻafforovna,** pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdugʻaniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Koʻnak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoʻja oʻgʻli,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Utayev Uktam Choriyevich,** Oʻz.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshligʻi oʻrinbosari
**Ochilov Farkhod,** Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshligʻi
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil oʻgʻli,** texnika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), katta oʻqituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon oʻgʻli,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor oʻgʻli,** TDIU katta oʻqituvchisi

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**
**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Ochilov Farkhod,** Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**G‘afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o‘qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher


08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati


Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA

"Zavur kollektor suvlarining kimyoviy tarkibi tahlili va ularni tozalash zarurati (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida)" ........ 20
**Kungiratbay Sharipov, Ma'ruf Nurmanov**

Forming demand and stimulating sales in Uzbekistan ........ 26
**Musayeva Shoira Azimovna**

Членство в ВТО как драйвер развития: взгляд Узбекистана через призму опыта Вьетнама и Казахстана ........ 30
**Ж.Я.Нуриллаев**

Mamlakatimizda tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash tartibi va ularning bank tizimi moliyaviy barqarorligiga ta'siri tahlili ........ 37
**Xolmamatov Farhodjon Kubaevich**

O'zbekiston respublikasida aholi bandligini ta'minlashdagi dolzarb masalalar ........ 44
**Ibragimov Elmurod Gulboynor o'g'li**

O'zbekiston respublikasida elektr energiyasi ta'minoti hajmini yalpi ichki mahsulot hajmiga ta'sirini ekonometrik tahlil qilish ........ 48
**Fayziyev Rabim Alikulovich**

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarini takomillashtirish amaliyoti ........ 60
**Umurzoqova Adiba Ochilovna**

Qishloq xo'jaligi kooperativi boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari ........ 67
**Abduraxmanov Ramazon Abdullayevich**

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmini prognozlashda ekonometrik modellar (yillik) ........ 72
**Qodirov Farxod Amirovich, Bo'ribaeva Qundiz Muratbaevna**

Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari ........ 77
**Mahamatova Maftuna**

Xufiyona va yashirin iqtisodiyotning amaliy tahlili o'zbekiston miqyosida ........ 83
**Koshanov Abdimurat Azat uli**

Soliq tizimini barqarorligini belgilovchi omillar tahlili ........ 87
**Nurillayev Jasurbek Davronbekovich**

Mahalliy budjetlar daromad manbalarini mustahkamlash omillari ........ 92
**Soatova Nodira Boboxanovna**

Bank infratuzilmasining raqamli transformatsiyasi va resurslar bazasi shakllanishi: nazariy asoslar va texnologik yondashuvlar ........ 97
**Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich, Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li**

Ichki auditning transformatsion potensiali: tahliliy amallarni takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirish ........ 102
**Misirov Akbarali Pardaboyevich, Ismoilov Asadbek Abdusamat o'g'li**

Xorijiy mamlakatlarda yashil moliyalashtirishni rivojlantirish yo'llari ........ 110
**Qorriyeva Shahnoza Safarbayevna**

Yashil moliya – iqtisodiy rivojlanish mexanizmi sifatida ........ 117
**Nodir Xidirov G'iyosaliyevich**

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashning xorij tajribasi va uning amaliy ahamiyati ........ 122
**Bauyetdinov M.J.**

Теоретические подходы к определениям агрессий социально - экономической и политической стабильности государства как фактор повышения рекреационных потребностей ........ 128
**Алимова Райхона Баходировна**

Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida talabalarning metodik tayyorgarligini shakllantirish ........ 139
**Komilov Umidjon Normurod o'g'li, Tulyaganova Gulnoza Olimjon qizi**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish manbalari ..... 143
Nematulloyev Suxrob Sobirovich
Bir qatlamli elastik asosda joylashgan to'sinning seysmik kuchlar ta'siridagi tebranishining V.Z. Vlasov usuli asosida analitik tadqiqi ..... 148
Kamola Xaydarova
"Sibir daryolarining burilishi" loyihasining tarixiy va retrospektiv tahlili ..... 153
Mahmudov Nosir Mahmudovich
Sarguzasht turizmini rivojlanishi va sarguzasht turlarda turistlarning xavfsizligini ta'minlashda instruktor-gidlarning roli ..... 159
Tilovmurodov Dostonbek Furqat o'g'li
Scientific-theoretical foundations of the use of ict in ensuring management efficiency and security in enterprises ..... 165
Khalilov Bekzod Akhmatovich
Tijorat banklarida kredit riskini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari ..... 171
Mirtursunova Dinara Anvarovna
O'zbekiston respulikasi tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini joriy etishni takomillashtirish yo'llari ..... 175
Tangriyev Izzat Raxmatullayevich
Qashqadaryo viloyatida eko va etno turizmni rivojlantirishning istiqbollari va iqtisodiy samaradorligi ..... 181
Erkayeva Barno, Xushvaqtov Ramziddin
O'zbekiston bank tizimida raqamli valyutalar va yashil investitsiyalar integratsiyasini takomillashtirish ..... 186
Nodirov Azizxon Asrorovich
Global energiya noaniqligining o'zgaruvchanligi ekonomertik modellari ..... 192
Bexzod Qo'ziboev
Экоцифра: цифровизация МСП для зеленого устойчивого роста ..... 197
С.С. Убаева
Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish va ekologik toza hududni yo'lga qo'yishning ahamiyati ..... 201
Ergashov Ulug'bek Zoxidjonovich
Statistika fanining shakllanish bosqichlari va rivojlanish tendensiyalari ..... 206
Nabixodjaev Abbas Abdupattahovich, Umarova Mukaddas Abbasovna
Hududlarning atmosferaga chiqaradigan zararli chiqindilar miqdorini sanoat mahsulotiga nisbati bo'yicha tahlili ..... 210
Baqoyev Husan Nuriddinovich
Qayta tiklanadigan vodorod narxlari strategiyasini o'rganish: xarajat noaniqliklarini bartaraf etish ..... 216
Nuraliyeva Komila Sanakulovna
Qishloq xo'jaligini "yashil" iqtisodiyot asosida rivojlantirishga o'tishning zarurligi va mohiyati ..... 221
Yoldoshev Mutalib Ibrohimovich
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda "yashil investitsiyalar" dan foydalanishning xorij tajribalari ..... 225
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna, Rustamova Nasiba Arslanovna
Ijtimoiy iqtisodiy ehtiyojlar va ularning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni ..... 230
Raxmonova Feruza Musaqulovna
Oliy ta'lim xizmatlarini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda tutgan o'rni ..... 234
Mirzaxajaeva Shaxzoda Shuxratovna
Tijorat banklari muammoli kreditlarining likvidlilikka ta'siri ..... 240
Karshiyev Adham Anvarovich
Kichik firmalarning raqobatbardoshligini oshirishning nazariy metodologik jihatlari ..... 245
Ruzmetov Davron Ibrogimovich, Aliyev Maqsudbek Erkinovich
Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlari ..... 251
Talapova Nargiza Baxriddinovna

"Deviant xulq-atvorli o'smirlarning ijtimoiy moslashuvining psixologik xususiyatlari" ........ 255
**Saidbekova Feruza Anvarbek qizi**
Aholi daromadlarini diversifikatsiya qilishda davlat siyosatining roli va imkoniyatlari ........ 258
**Nutfullayev Shohrux Mexli o'g'li, Qurbanov Ulug'bek Erkinovich**
Анализ показателей развития зелёной химии по всему миру и в узбекистане за последние десять лет ........ 262
**Фозилова Фирангиза Комиловна**
Tijorat banklarining o'zbekiston respublikasi iqtisodiyotiga ta'siri ........ 270
**Masharipov Rasulbek Jo'rabekovich**
Biznes birlashuvda buxgalteriya hisobi va auditni takomillashtirish yo'nalishlari ........ 273
**Hamroyeva Zuhra Amiral qizi, Xayitboyeva Laylo Oybekovna, Mirzarayimov Sardorbek Ravshanovich**
O'zbekiston respublikasida pul-kredit siyosatining maqsadi ........ 277
**Adilov Zuxriddin Marip o'g'li**
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ishlab chiqarish va bozorlararo aloqalarining statistik o'zgarish tendensiyalari ........ 281
**Zakirova Umida Maxamadaminovna**
Iqtisodiy bilimlarni shakllanishi va rivojlanishi ........ 286
**Po'latov Abdulloh Xolxo'jayevich**
Теоретические основы эффективного управления финансовыми ресурсами предприятий с государственной долей (на примере узбекистана) ........ 291
**Ахмедов Дилшод Турсункулович**
Robototexnika asoslari va maktab ta'limida qo'llanilishi ........ 298
**Tuxliyev Muslimbek Sherzod o'g'li**
Sun'iy intellektlar yordamida o'quvchilarni hayotiy faoliyat ko'nikmasini shakllantirishi ........ 303
**Mirxasilova Zulfiya Kochkarovna, Abdurahmanova Ozoda Djo'rayevna, Kurbanov Azimjon Jo'raboy o'g'li**
Levi tengsizligi uchun A.N. Kolmogorov teoremalari ........ 316
**Saypiddinov Shukrullo Sadrdinovich, Baxramov Rustamjon Qambarali o'g'li**
Rivojlanayotgan mamlakatlar bank tizimida raqamli moliyaviy texnologiyalarni joriy etish afzalliklari ........ 320
**Xodjimamedov Akmal Ashurovich, Umedov Abdullo Umedovich**
O'zbekiston respublikasining mdh mamlakatlari bilan tashqi savdo faoliyati tahlili: o'zgarish tendensiyalari va istiqbollari ........ 326
**Ilyosov Asrorjon Axrorjon o'g'li, Abdullaev Alisher Maxmudovich, Tuxtasinova Muxayyo Mirzasultonovna**
Elektron tijoratni rivojlantirishning xorij tajribasi ........ 330
**Madieva Zuxra Iskandarbekovna**
Inson resurslarini o'rganishning asosiy yondashuvlari: mohiyat-ta'rifiy tahlil ........ 336
**Bakırov Qobiljon Mamatyusupovich**
Bandlikni ta'minlashda davlat tomonidan institutsional muhit yaratishning roli ........ 340
**Dilorom Tojiboyeva, Umida Ravshanovna Anvarova**
Mamlakatimizda islom moliyasini rivojlantirish maqsad va choralari ........ 346
**Xoliyorov Xomid Boynazarovich**
Разработка экспертной системы для оценки финансового состояния предприятия ........ 352
**Tajibayeva Kizlargul Ajiniyazovna**
Farg'ona vodiysi viloyatlarida kichik biznes ko'rsatkichlarining o'zgarishi: panel regressiya tahlili ........ 362
**Tojiyeva Muhabbatxon Mansurjon qizi**
O'zbekiston Respublikasida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblashdagi asosiy muammolar va ularning yechimlari ........ 368
**Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li**
Xorijiy tajriba asosida korxonalar innovatsion faolligini boshqarishni takomillashtirish ........ 374
**Hakimova Nozimaxon Sobirjon qizi**
Mahalliy davlat hokimiyati organlarida milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish ........ 380
**G'aniev Elyor Sobirjonovich**
O'zbekistonda sirkulyar iqtisodiyotga o'tishning ahamiyati ........ 386
**Mirzayev Muzaffar Maxmudovich**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

The role of international investments in greening and ecological rehabilitation of the aral sea region ........ 392
**Ospanova Feruza Bazarbaevna**

“Зеленое направление” совершенствования бухгалтерского учета ........ 397
**Ибрагимов Гайратжон Артикович**

Xarajatlarni kelib chiqish joylari va javobgarlik markazlari bo‘yicha hisobga olishni takomillashtirish ........ 403
**Xamidova S.Ya.**

Mintaqalarni iqtisodiy rivojlantirishning metodologik asoslari va ularni takomillashtirish........ 409
**Toshaliyeva Saodat Toxirovna**

O‘zbekistonda kichik turar joy biznesini rivojlantirishda xorijiy tajribalar ........ 414
**Yo‘ldashev Bekzodjon Sherzodjon o‘g‘li**

Tijorat banklarida davlat maqsadli dasturlarini moliyalashtirish yuzasidan ilmiy-nazariy qarashlar........ 419
**Shodiyev Shuhrat Sunnat o‘g‘li**

Qandolat mahsulotlari bozorida marketing strategiyalaridan foydalanishning xorijiy mamlakatlar tajribasi........ 426
**Azlarova Munira Muxammad-Amin qizi**

Risk management in commercial banks, methodological approaches and practical implementation ........ 433
**Baymuratova Zina Aqilbekovna, Jarilkapova Naubaxar Paraxat qizi**

The impact of competition on economic growth: evidence from uzbekistan’s automative industry........ 439
**Saydaliyeva Dilrabo Baxriddin qizi**

Raqamli texnologiyalarning oliy talim xizmatlarini rivojlantirishdagi o‘rni ........ 444
**Mirzaxadjayeva Shahzoda Shuxratovna**

Развитие производства сельскохозяйственной продукции путем развития цифровых технологий........ 450
**Юсупов Мухиддин Соатович**

Tijorat banklarida loyihaviy moliyalashtirish risklarini boshqarish amaliyotini takomillashtirish ........ 457
**Berdiyev Akram O‘ktamovich**

Iqtisodiy tarmoqlarni soliqqa tortish orqali investitsiya loyihalarini rivojlantirish........ 463
**Sharipov Eldor Salohiddin o‘g‘li**

Iqtisodiyotda investitsiya va kredit salohiyatini bank faoliyatiga ta’siri........ 468
**Ergashova Nilufar Sobirovna**

Qurilish materiallari sanoati korxonalarining raqobatbardoshlik salohiyatini boshqarishni takomillashtirish ........ 473
**Tashmukhamedova Karima Samatovna**

Ziyorat turizmini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari va istiqbollari........ 479
**Kurbanova Mohinur Xabib qizi**

Xalqaro sayohat lug‘ati va uning shakllanishi........ 487
**Abduaxadova Zilola Djamoliddinovna**

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va uni o‘zbekiston respublikasi hisob tizimini rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyati........ 492
**Quvvatov G‘olibjon Baxtiyor o‘g‘li**

Kooperatsiyalarning tutgan o‘rni va ahamiyati........ 501
**Mirzayev Musurmon Umidullayevich, Ziyadullayev Ilhom Narkobilovich**

Использование методов математического моделирования при внедрении коммерческих автоматических систем ........ 505
**Курбанова Рахима, Ахмедов Мехрожхон**

Tijorat banklari kapitalidagi davlat ulushini kamaytirish yo‘llari ........ 511
**Vasiyev Alisher Samiyevich**

Механизмы трансформации неформального сектора в официальную экономику на основе финансовых инструментов........ 515
**Кошанов Абдимурат Азат ули, Муртазаев Шахрух Конысжайлиевич**

The impact of tourism on the economy of Uzbekistan ........ 519
**Xaydarova Marjona, Muxamedboyeva Muxlisa, Umarov Kamron, Usmanova Aziza**
Mintaqada gastroturizm rivojlanishining iqtisodiy asoslari va zamonaviy tendensiyalari ........ 525
**Masharipova Manzura Alimbayevna**
Qoraqalpog'istonda mehmonxona xo'jaligining hozirgi holati tahlili ........ 530
**Xalimova Fayoza Nafasovna**
Tikuv-trikotaj korxonalari brend jozibadorligini oshirishning ilmiy-nazariy jihatlari ........ 535
**O'rinov Akmaljon Axmadjonovich**
Bank tizimida hisobotlarni avtomatlashtirish texnologiyalari ........ 542
**Sodiqov Sanjar Saydullo o'g'li**
Engineering programs in Uzbekistan on the verge of fifth industrial revolution ........ 547
**Khasan Khankeldiyev**
Aksiyadorlik jamiyatlarining boshqaruvini yaxshilashda korporativ madaniyatning ahamiyati ........ 551
**Akramova Nazokat Israilovna**
Tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy taraqqiyotdagi o'rni ........ 562
**Amonov Mehriddin Oromiddinovich**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS



# TADBIRKORLIK FAOLIYATINING IQTISODIY TARAQQIYOTDAGI O'RNI

**Amonov Mehriddin Oromiddinovich**
Iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
E-mail: mexriddin_amonov@tues.uz
Orcid-0009-0007-2217-0472

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakat iqtisodiyoti va uning tarmoqlarida tadbirkorlik subyektlarining tutgan o'rni statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy taraqqiyotdagi ahamiyati yoritilgan. Muallif tomonidan ushbu sohalarni rivojlantirishni ta'minlovchi infratuzilmani yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Tadbirkorlik, kichik biznes, bandlik, sanoat, iqtisodiy taraqqiyot, iqtisodiyot tarmoqlari.

Abstract: This article analyzes the role of entrepreneurial entities in the national economy and its sectors based on statistical data. The importance of small business and private entrepreneurship in promoting economic development is highlighted. The author presents proposals for further improvement of the infrastructure supporting these sectors.

Key words: Entrepreneurship, small business, employment, industry, economic development, economic sectors.

Аннотация: В статье проводится анализ роли субъектов предпринимательства в экономике страны и её отраслях на основе статистических данных. Подчёркивается значение малого бизнеса и частного предпринимательства в обеспечении экономического развития. Автором предложены меры по дальнейшему совершенствованию инфраструктуры, поддерживающей данные сферы.

Ключевые слова: Предпринимательство, малый бизнес, занятость, промышленность, экономическое развитие, отрасли экономики.

## KIRISH

Jahon miqyosida global iqtisodiy integratsiya va raqobat kuchayib borayotgan bir sharoitda, milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Shu sababli mamlakatimizda mazkur sohalarni yanada rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar ko'lami yildan-yilga kengaymoqda. Natijada tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda ularning milliy iqtisodiyotdagi ulushini oshirish yo'lida ijobiy natijalarga erishilmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining ustunlik jihatlari – nisbatan kam resurslar talab qilishi, bozordagi o'zgarishlarga tez moslasha olishi, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanib, bozorga tezda o'z taklifini bera olishi bilan tavsiflanadi. Ushbu xususiyatlar ularni yirik biznesga nisbatan yanada raqobatbardosh qiladi. Bundan tashqari, tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatini kengaytirish va daromadni oshirish maqsadida bozorda izchil harakat olib borar ekan, bu holat bandlik muammosining bartaraf etilishiga ham sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Davlat tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar, xususan, iqtisodiyotdagi davlat ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish, xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatining yalpi ichki mahsulotdagi (YAIM) ulushini oshirish, import o'rnini bosuvchi milliy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar o'z samaradorligini ko'rsatmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PF–50-sonli "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni [1] asosida kichik biznesni jadallik bilan rivojlantirish, hududlarda biznes muhitini yanada yaxshilash, iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi yangi biznes tashabbuslarini amalga oshirish, shuningdek, raqobatbardosh mahsulotlar bilan tashqi bozor segmentlariga chiqishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amaliyotga joriy etilmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiyotdagi o'rni, uning barqaror iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Y. Shumpeter [2], A. Asaul [3], P. Khizrich [4], A. Hoskin [5] kabi xorijiy iqtisodchilar ushbu sohaning nazariy asoslarini ishlab chiqishgan. Ularning tadqiqotlarida tadbirkorlik innovatsiyalarning asosiy drayveri, iqtisodiy yangilanish va ish o'rinlari yaratish vositasi sifatida talqin etiladi.

O'zbekistonlik olimlar – S. G'ulomov [6], B. Xodiyev, M. Qosimova, A. Samadov [7], U. G'afurov [8], S. Salaev [9] va boshqalar esa mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish bosqichlari, institutsional bazasi, moliyalashtirish mexanizmlari va huquqiy asoslarini ilmiy jihatdan chuqur tahlil etishgan. S. G'ulomov o'z tadqiqotlarida tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning zarurligini asoslab bergan bo'lsa, A. Samadov kichik biznesning hududiy ixtisoslashuvini va infratuzilma bilan bog'liq muammolarni yoritgan.

Shuningdek, mahalliy adabiyotlarda xususiy sektorning YAIMdagi ulushini oshirish, zamonaviy moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, soliq yengilliklari, biznes yuritish qulayligi indekslari orqali tadbirkorlik salohiyatini oshirishga oid ilmiy yondashuvlar keng yoritilgan. Ushbu adabiyotlar maqola mazmunini boyitishda asosiy nazariy-metodologik asos vazifasini bajardi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada tadbirkorlik faoliyatining barqaror iqtisodiy taraqqiyotdagi o'rnini aniqlash va baholash maqsadida tizimli yondashuv asosida ilmiy metodlar qo'llanildi. Avvalo, soha bo'yicha mavjud ilmiy qarashlar va adabiyotlar o'rganildi, ularning asosiy tamoyillari tahlil qilindi. Statistik ma'lumotlardan foydalanilgan holda, tadbirkorlik muhitining rivojlanish darajasi baholandi, subyektlarning iqtisodiy faoliyat ko'rsatkichlari guruhlashtirildi hamda ular o'rtasidagi bog'liqliklar aniqlashga intilindi.

Shuningdek, ekspert baholash usuli orqali kichik biznesni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan omillar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi. Kontent tahlili va empirik kuzatuvlar asosida mavjud holat baholanib, natijalarga asoslangan holda nazariy va amaliy xulosalar chiqarildi. Tadqiqotda shuningdek solishtirma tahlil, guruhlash, tendensiyalarni aniqlash va natijalarning grafik ifodasi kabi kompleks metodologik yondashuvlar uyg'un holda qo'llanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadbirkorlik faoliyati zamonaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. U iqtisodiy o'sish, innovatsion yangiliklar va bandlik darajasining oshishida katalizator vazifasini bajaradi. Tadbirkorlar yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, yangi ish o'rinlarini yaratish, mahsulot va xizmatlar turini kengaytirish orqali YAIMga sezilarli hissa qo'shmoqdalar. Bu esa jamiyatda iqtisodiy faollik va ijtimoiy farovonlik darajasini oshiradi.

Tadbirkorlar ko'pincha texnologik va ijtimoiy o'zgarishlarning boshlanish nuqtasida turadilar. Ular innovatsion mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqadilar, mavjudlarini takomillashtiradilar, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini yangi usullar asosida tashkil etadilar. Natijada iqtisodiyotda samaradorlik oshadi, yangi iste'mol segmentlari shakllanadi va eksport imkoniyatlari kengayadi.

Tadbirkorlik faoliyati shuningdek ijtimoiy o'zgarishlarning asosiy drayveri sifatida ham namoyon bo'ladi. Yaratilayotgan noyob mahsulotlar orqali hayot sifatiga bevosita ta'sir qilinadi, insonlarning ishlash, yashash va fikrlash tarziga yangicha yondashuvlar shakllanadi. Shu bilan birga, bozorga yangi tadbirkorlik subyektlarining kirib kelishi mavjud raqobatchilarni faolroq harakat qilishga, yangi yondashuvlar va boshqaruv usullarini joriy etishga undaydi. Bu esa umumiy bozor muhitining sifatini oshirib, milliy iqtisodiyotda innovatsion raqobatni faollashtiradi.

Quyida keltirilgan 1-rasmda 2010-2024 - yillarda kichik tadbirkorlik sub'ektlarining mamlakat YaIMdagi ulushi jamiga nisbatan foizlarda keltirilgan.




1-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami YaIMdagi ulushi[1].

1-rasmda keltirilgan statistik ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, so'nggi o'n yillikda tadbirkorlik subyektlarining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi (YAIM) ulushi nisbatan qisqarganiga qaramay, umumiy hisobda 50 foizdan yuqori darajada saqlanib qolgan. Bu esa YAIMning yarmidan ortiq qismi aynan kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilayotganini anglatadi. Ushbu holat kichik biznes vakillarining mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishidagi o'rni va roli yuqoriligini yaqqol tasdiqlaydi.

Surxondaryo viloyati misolida olib qaralganda, yirik ishlab chiqarish korxonalari va zavodlar sonining nisbatan kamligiga qaramasdan, viloyat yalpi hududiy mahsulotining (YaHM) 70 foizdan ortig'i aynan tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Xususan, 2024-yil yakunlariga ko'ra, Surxondaryo viloyatining YaHM tarkibida kichik biznes subyektlari tomonidan yaratilgan mahsulotlar ulushi 77,8 foizni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich respublika miqyosidagi 54,3 foizlik natijadan ancha yuqori. Ushbu raqamlar Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlikning iqtisodiy ahamiyati nihoyatda muhim ekanini ko'rsatmoqda.

2-rasmda esa kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat tarmog'i doirasidagi ulushi tahlil qilingan. 2010-yilda bu ko'rsatkich respublika bo'yicha chorak qismdan yuqori (25% dan ortiq) bo'lgan bo'lsa, 2015-yilga kelib 40 foizdan oshgan. Biroq 2020–2023-yillar davomida ushbu ulush nisbatan kamayib, 27 foiz atrofida bo'lgan. Shunga qaramay, 2024-yilga kelib kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat tarmog'idagi ulushi yana o'sib, 32,4 foizga yetgan.

Hududiy kesimda, Surxondaryo viloyatida 2010-yilda kichik biznesning sanoatdagi ulushi respublika darajasiga yaqin bo'lgan bo'lsa, 2015-yildan boshlab bu ko'rsatkich izchil o'sib borgan. Natijada 2024-yil holatiga ko'ra, viloyatdagi kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat sohasidagi ulushi 64,8 foizni tashkil etmoqda. Bu esa mazkur subyektlarning nafaqat xizmat va savdo yo'nalishlarida, balki sanoat sohasida ham yetakchi kuchga aylanganini, hududiy industrial rivojlanishda muhim rol o'ynayotganini anglatadi.




2-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari (xizmatlari)dagi ulushi[2]

1 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi
2 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Quyida keltirilgan 1-jadval ma'lumotlarida ham tadbirkorlik sub'ektlarining mamlakat va hudud iqtisodiyoti tarmoqlaridagi ahamiyati toʻgʻrisida maʼlumotlar keltirilgan boʻlib, bunda ham Oʻzbekiston Respublikasi va Surxondaryo viloyatlari yuzasidan statistik maʼlumotlari keltirilgan. Ushbu jadvalda kichik tadbirkorlik sub'ektlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi keltirilgan boʻlib, 2010-yilda Oʻzbekiston boʻyicha bu koʻrsatkich 52,5 foizni tashkil etgan boʻlsa, 2024-yilga kelib bu koʻrsatkich 76,5 foizni tashkil etgan. Surxondaryo viloyatida esa 2010-yilda bu koʻrsatkich 77,9 foizni tashkil etgan boʻlsa, 2024-yilda 90,5 foizni tashkil etganini koʻrishimiz mumkin. Bu koʻrsatkichlar ham tadbirkorlik faoliyatining ushbu sohadagi oʻrni yuqori ekanligini koʻrsatmoqda.

1-jadval. Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi (jamiga nisbatan foizda)[3]

| Oʻzb. Resp. hududlari / Yillar | 2010 | 2015 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Oʻzbekiston Respublikasi | 52,5 | 66,7 | 72,5 | 72,5 | 71,5 | 78,6 | 76,5 |
| Surxondaryo viloyati | 77,9 | 77,9 | 84,2 | 86,7 | 92,2 | 91,8 | 90,5 |

3-rasmda milliy iqtisodiyot uchun nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham dolzarb boʻlgan aholi bandligiga oid statistik tahlil natijalari keltirilgan. Ushbu maʼlumotlarga koʻra, 2010–2023-yillar oraligʻida Oʻzbekiston miqyosida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi oʻrtacha 74 foiz atrofida boʻlgan. Bu esa mamlakatdagi umumiy ish bilan band aholining toʻrtdan uch qismiga yaqini aynan tadbirkorlik sohasida faoliyat yuritganligini anglatadi.

Hududiy kesimda, Surxondaryo viloyatida ushbu koʻrsatkich yanada yuqori darajada qayd etilgan. 2010-yilda viloyatdagi jami bandlikda tadbirkorlik subyektlarining ulushi 75 foizni tashkil etgan boʻlsa, 2015-yilda bu koʻrsatkich maksimum darajaga yetib, 80,3 foizga koʻtarilgan. Keyingi yillarda bu ulush nisbiy barqarorlikni saqlagan holda 2020-yilda – 78,4 foizni, 2023-yilda esa – 76,8 foizni tashkil qilgan.

Ushbu raqamlar shuni koʻrsatmoqdaki, Surxondaryo viloyatida umumiy bandlikning toʻrtdan uch qismidan ortigʻi aynan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga toʻgʻri kelmoqda. Bu esa ushbu subyektlarning nafaqat iqtisodiy barqarorlikni taʼminlashdagi, balki aholi bandligini oshirish orqali ijtimoiy taraqqiyotga qoʻshayotgan hissasi beqiyos ekanligini isbotlaydi.

Tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilayotgan doimiy ish oʻrinlari, ularning ijtimoiy himoyani taʼminlashdagi roli, aholining turmush darajasini yaxshilashga qoʻshayotgan hissasi hamda migratsiya oqimlarini pasaytirishdagi taʼsiri bugungi kunda ushbu sohaning strategik ahamiyatga egaligini tasdiqlaydi.




3-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi[4]

3 Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi maʼlumotlari asosida muallif ishlanmasi
4 Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi maʼlumotlari asosida muallif ishlanmasi

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, tadbirkorlik faoliyati foyda olishga qaratilgan faoliyat turi bo'lib, foyda olish – innovatsiyalarni o'z faoliyatiga doimiy tadbiq etib borishni talab etadi. Innovatsiyalar, o'z navbatida, firmalarga o'zgaruvchan bozor sharoitlari va iste'molchilarning xohishlariga to'laqonli javob berishga yordam beradi va shu bilan uzoq muddatda rentabellikni saqlab qoladi yoki oshiradi.

Yuqorida qayd etib o'tilgan iqtisodchi olimlar fikrlari, keltirilgan nazariy asoslar va statistik ma'lumotlar tahlilidan xulosa qilib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faol faoliyati nafaqat milliy iqtisodiyot, shuningdek, ijtimoiy taraqqiyot uchun ham katta ahamiyatga ega bo'lib, mamlakat miqyosida ular faoliyatlarini samarali tashkil etilishi uchun hukumat tomonidan qulay infratuzilmaning yaratilishida bizning nazarimizda quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiqdir:

Qishloq xo'jaligi sohasidagi tadbirkorlik faoliyati uchun sharoitlarni yanada yaxshilash, xususan, agrar soha hudud iqtisodiyoti uchun ahamiyatli bo'lgan Surxondaryo viloyati uchun bu masala muhimdir;

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga davlat tomonidan aralashuvni minimallashtirish, shu bilan birga, ushbu jarayonda bilvosita (iqtisodiy) usullardan kengroq foydalanish;

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.03.2025-yildagi PF-50-sonli "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
2. Шумпетер Й.А. Теория экономического развития (Theorie der wirtschaftlichen Entwicklung). Изд. Директмедиа Паблишинг, 2008. – 400 с.
3. А.Н. Асаул. «Организация предпринимательской деятельности». Учебник для ВУЗов, Питер, 2013. – 352 с.
4. Хизрич Р., Питерс С. Предпринимательство / Пер. с англ. – М.: Прогресс, 2011. – 257 с.
5. Хоскин А. Курс предпринимательства / Пер. с англ. – М.: Прогресс, 2013. – 349 с.
6. G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. – T.: "Sharq", 2002. – 236 b.
7. Xodiyev B.Yu., Qosimova M.S., Samadov A.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2010.
8. G'afurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Dissertatsiya. – T., 2017. – 138 b.
9. Salaev S.K. Kichik biznes rivojlantirish tendensiyalarini modellashtirish va bashoratlash. Dissertatsiya. – T., 2008. – 324 b.
10. Amonov M.O. Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish. Dissertatsiya (i.f.f.d.). – T., 2024. – 142 b.

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

**2025. № 5**



© Materiallar ko'chirib bosilganda ""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz